



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

DARSLIKLARNING O'QUVCHIGA MA'NAVIY QADRIYATLAR ORQALI TA'SIR KO'RSATUVCHI TARBIYAVIY VAZIFASI

Irodaxon Halimjonova

Boshlang'ich talim o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur tezisda darsliklarning metodik xususiyatlari, ta'lim konsepsiyasining darsliklarda joriylanishi masalalari yoritilgan. Darsliklardagi matnlarning standart talabi asosida yaratilishi hamda ularda savol va topshiriqlarning turli usul va vositalarda keltirilishining uslubiy xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Metodologiya, milliy o'quv dasturi, ta'lim konsepsiyasi, variativ o'quv dastur, tanqidiy fikrlash.

Darslik asosan matndan iborat bo'lib, u o'z navbatida ta'rif beruvchi matn, bayon etuvchi, mulohaza yurituvchi matnlarga bo'linadi. Bundan tashqari darslikda qo'shimcha komponentlar ham ishtirok etishi muhim hisoblanadi: savollar, topshiriqlar, masala va mashqlar, eslatmalar, jadvallar, muhim termin, ta'rif va tushunchalarni alohida shriftlar bilan ajratilishi, grafik va illyustrativ materiallardan iborat bo'lishi, sarlavhalarga ajratilishi. Darslik bilan o'quv jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma'lumotlar va hokazolardan o'z o'rnida foydalanish lozim. Darsliklardagi savollar va topshiriqlar ta'lim konsepsiyasi asosida tuzilgan va metodik nuqtayi nazardan to'g'ri joylashtirilgan (kamol toptirish maqsadida yoki rasmlar orqali ifodalangan) bo'lishi lozim. Ular, asosan, quyidagi uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

kiradi. Ikkinchi guruh tafakkurni o‘ stiradigan (mustaqil ishlashni, taqqoslash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar tizimini mustahkamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir. Uchinchi guruh o‘ zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘ llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarni egallashga) doir savol va topshiriqlarni o‘ z ichiga oladi.

Darslikda dasturning barcha talablari aks etishi va asosiy g‘ oyalar, xulosalar yaqqol ifodalanishi lozim. Darslikni bolalarga moslashtirishda quyidagilarni alohida e‘ tiborga olishni bilish kerak:

- materiallarni darsliklarga to‘ g‘ ri taqsimlash;
- o‘ quvchilarga beriladigan vazifalarni asta-sekin qiyinlashtirib borish (tizimga solish);
- o‘ quvchilarga tabaqali yondashishni nazarda tutish (topshiriqlarni qiyin yoki osonligiga qarab tanlash);
- darsda, uy vazifalarini bajarishda, takrorlashda asosiy va qo‘ shimcha materiallarni ajratish;
- darsiikdagi savol va topshiriqlarning mo‘ ljallangan vaqtga mosligi va o‘ quvchilarni qiynab qo‘ ymasligi;
- darslikning mazmuni (o‘ quvchilarni qiziqtirishi, matnlarning g‘ oyaviy va estetik jihatlari) uni o‘ rgatishning metodik tizimiga muvofiq bo‘ lishi;
- darslik tilining osonligi va ravonligi, o‘ quvchilar nutqini o‘ stirish uchun namuna bo‘ la olishi.

Darslikning asosiy komponenti uning matnidir. Matnlar asosiy va qo‘ shimcha materiallardan (murojaat, hujjat, xrestomatiya va hokazolardan) hamda tushuntirishlardan iborat bo‘ ladi. Darslikni tahlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o‘ rni, illyustratsiyalarga boyligi va eng muhimi o‘ quvchilarga ta‘ siri hisobga olinishi kerak. Mana shu talablar amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o‘ ziga xos muammolarini to‘ g‘ ri hal qilish,



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

darslik o' quv-metodik ishlarining asosi bo' lishi kerakligini nazarda tutish shart.¹ Darslikni tahlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o'mi, illyustratsiyalarga boyligi va eng muhimi o'quvchilarga ta'siri hisobga olinishi kerak. Mana shu talablar amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o'ziga xos muammolarini to'g'ri hal qilish, darslik o'quv-metodik ishlarining asosi bo' lishi kerakligini nazarda tutish shart.

So' ngi yillarda ta' lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo' yicha farmon va qarorlar qabul qilindi va bunga asosan deyarli barcha dastur hamda darsliklar asosiga o' zgartirishlar kiritildi. Bunga sabab bo' lgan eng katta omil shundaki, bizning milliy o' quv dasturimiz xalqaro talablarga hamda chet elning ko' zga ko' ringan ta' lim jarayonlari natijalariga tenglasha olmasligi edi.

Milliy O' quv Dasturimiz (MO' D) va Janubiy Koreyaning standartlariga 30,34% inigina tashkil qiladi. Bu ,albatta, ta' limda oqsoqlik borligini bildiradi. Janubiy Koreyada boshlang' ich sinflarda o' quvchilarga ta' lim berishda zamonaviy raqamli texnologiyalar qo' llaniladi. Bizda ham ta' lim olishda raqamli textologiyalni qo' llash borasida qaror va farmonlar amalda qo' llanilmoqda. Bu farmonlarda ta' lim sohasida raqamli ko' nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: ta' lim pog' onasining boshlang' ich bosqichida o' quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko' nikmalarni o' zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo' ladigan keng ko' lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko' nikmalar berish.

O' quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishda o' qituvchilar ta' lim berishda raqamli texnologiyalardan maqsadli, samarali foydalanishi,



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

individual yondashishni zaruratini oshirishi va raqamli bilim, ko' nikmalarni amalga oshirish muhim omil hisoblanadi.

Ta'limdagi islohatlardan so'ng Milliy O'quv Dasturimizni Xalqaro dastur bilan qiyoslanganda dasturda ancha siljish borligini ko'rishimiz mumkin. Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan. Yangi Milliy o'quv dasturi mazmuni 50% nazariya 50% amaliyotdan iborat bo'ladi va o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash. O'quv dasturlarida baholash esa faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi. Eski dasturlardagi darsliklarni misol tariqasida oladigan bo'lsak, avvalgi darsliklar qiyin akademik tilda yozilgan bo'lib bu o'quvchilarni fandan bezdirish va ularni tushunmaslikka olib kelar edi. Lekin bugungi kunda ta'lim butun dunyo o'rganish natijalariga asoslangan. Ya'ni o'quvchi darslikdagi, dasturdagi biror mavzuni o'rganolmadimi, ya'ni o'sha mavzuni o'qiydi. Avvalgiga o'xshab soatlarga bo'lib berilmadi. O'quvchi o'rgansa-o'rganmasa, keyingisiga o'tib ketaverar edi. Natijada bola tushunmagani sayin darsni yomon ko'ra boshlardi. O'z-o'ziga nisbatan bahosi pasayib ketardi. Eng katta muammo ham shunda edi. Endi faqat yod olishga emas, balki o'quvchilarning ertangi hayotga ham tayyor bo'lishiga turtki berishga qaratilgan. Ya'ni u sinfxonada tanqidiy fikrini bildirsa, ijodiy fikrlasa, jamoa bo'lib ishlashni o'rgansa, muammoga



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

yechim topolsa, unda to'g'ri qaror qabul qilish, yangi g'oyani ilgari surish, fan nuqtai nazaridan dunyoni o'z ko'zi bilan anglash ko'nikmalari shakllanadi. Muammolarni bartaraf etish yuzasidan so'ngi yillarda barcha dastur va darsliklarga o'zgartirish kiritildi. Bunday darliklardan biri boshlang'ich sinflar uchun □ Ona tili va o'qish savodxonligi □ darsligidir. ' o'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-son.
2. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3 Issue 3. 535-bet
3. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021
4. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120